

## Muhim kunlar

Qarshimizdagi kunlarning muhimligini yozib turmoqqa hojat yo‘q. O‘tgan kunlarimizning birisidagi turk beshigi bo‘lg‘on Turkistonda muxtoriyat e‘lon etdik.

Tatar qardoshlarimizning “Kishi bo‘ri quva deb senda bo‘ri...” degan maqoli mavhumicha kishilardan qolishmayluk deb birda hozirliksiz bilan o‘zimizg‘a yerli muxtoriyat e‘lon etdik va katta harflar bilan “TURKISTON MUXTORIYATI” deb g‘azetalarga bosib chiqordiq. Muxtoriyat ishlarini boshqarmoq uchun bir hay‘at tuzib ichlarindan Muvaqqat Turkiston hukumati, ismi berib nozir (vazir)lar ham tayinlab qo‘yduq.

Bu ishlarning barchasi zamonasig‘a qarog‘onda har tugul ishladi. Yig‘ilishib munday ishlaymizmi? Ishlabmiz! Munday kerakmi? Kerak! Turkistonda Muxtoriyat e‘lon etamizmi? Etamiz! deb qaror bermak, yashasun deb qichqirmoq, olqishlamoq, bularning hammasi qo‘ldan kelaturg‘on ishlardir.

Ammo hozir ishlarning eng muhimi oldaydadir.

Bizning muxtoriyatga hozirlig‘imiz bor edimi? Yo‘q! Hozirlanamizmi? Yo‘q! Bularning hammasi yo‘q. Yolg‘iz muxtoriyat xay‘ati bilan muvaqqat Turkiston hukumati bor. Munday bo‘lg‘och bu hozirligimiz tashkil etgan muxtoriyatimizni yashata olib, boshqalarg‘a tanita olurmizmi? Ana shul savolg‘a javob bermak qiyin.

Kuchsiz, qalamsiz bir hukumatning borlig‘i tarixda hech ko‘rinmaganidek, bor bo‘lish ham haqiqatdan uzoqdir. Shuning uchun bizg‘a hech bir fursatni o‘tkazmasdan qilich bilan qalamga yopushmog‘imiz kerak.

Demakki, hozirdan milliy militsiyalar tashkil etmak yo‘llarig‘a kirishib ularni yaroq bilan ta‘min uchun milliy fund (xazina) ochub, o‘zimizni kuchli, o‘z boshimizcha yashamoqqa iqtidorli bir millat etib ko‘rsatmog‘imiz kerakdir.

Ikkinchi: hozirda yashamoqda bo‘lg‘on g‘azetalarimizdan boshqa, hay‘atimiz nashri afkori bo‘lg‘on rasmiy bir g‘azeta nashr etib, bu g‘azeta hay‘atimizning ishlaridan millatga hisob berib turmoqdan boshqa, g‘ayri millatlarning tashkilotlari bilan hisoblashmoq va ularg‘a o‘zining borlig‘ini bildirmoq uchun ruscha qismi ham bo‘lsa kerak.

Bizni orqamizda yaroqli bir kuch, ruslar bilan oramizda umumiy bir til bo‘lmag‘onda ularg‘a o‘zimizni tanitmoq qiyin bo‘lg‘onidek, ularning ham bizni tanimoqlari haqiqatdan yiroq bo‘lur.

**Najib**

**“Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 23 g‘anvar.**